

SHAHAR MANZARASI YOKI SANOAT MAVZUSIDAGI MANZARA KOMPOZITSIYASINI ISHLASH

Xasanova Marjona Amirovna

Annatatsiya. Manzara janri — tasviriy sanʼat janrlarining muhim janri boʻlib, manzara rangtasviri ham rangtasvir dasturining kerakli boʻlimi boʻlib, rassom-pedagoglarni tayyorlash jarayonida muhimdir. Manzara tasviriy sanʼatning eng hissiyotli janrlaridan biri hisoblanadi. Goʻzal manzara asarlar oʻzining nafosatli taʼsiri bilan insonni maʼnaviy boyitishga erishadi. Inson tomonidan atrof dunyoni maʼnaviy (qisman amaliy) oʻzlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan manzara oʻzida katta maʼno tashiydining bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), Kishloq(togʻ), sanoat (zavod, fabrika, inshoot koʻrilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (koʻrinishida) manzaralari asarlari va rassomlarning ushbu mavzudagi turli asarlari talqini yoritilgan

Kalit soʻzlar: Peyzaj, lirik, arxitektur, burma, marina, eskiz, fabrika.

Manzara, peyzaj — tasviriy sanʼaning tabiat koʻrinishini aks ettiradigan janri va shu janrda yaratilgan sanʼat asari manzada shahar koʻrinishi yoki meʼmoriy majmualar (meʼmoriy manzara), dengiz koʻrinishlari (marina) va hokazo ham tasvirlanadi. Atrof muhitni tasvirlayotgan rassom unda oʻzi va zamondoshlarining tabiatga munosabatlarini ifoda etadi, shu jihatdan yaratilayotgan asar his-tuygʻu va gʻoyaviy mazmunga ega boʻlib, muhim ahamiyat kasb etadi. Inson tomonidan atrof dunyoni maʼnaviy (qisman amaliy) oʻzlashtirishning turli tomon va darajalarini aks ettirgan manzara oʻzida katta maʼno tashiydining bir necha turlari mavjud: Shahar (Arxitektura), Kishloq(togʻ), sanoat (zavod, fabrika, inshoot koʻrilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (koʻrinishida) manzaralari shular jumlasidandir.

Rangli beqasamga oʻralgan tabiat qoʻyniga berkilgan togʻ yonbagʻridagi qishloq, quyosh nurida jilvayotgan daraxtlar orasidagi burma yoʻllardagi odamlar qiyofasi, ertak manzarasini eslatadi. Oʻsha davrdagi keksa rassomlar O. Tatevosyan, M. Novikov, A. Volkovlar manzara janrida ijod qilib, Oʻzbekiston tabiati va hayotdagi sodir boʻlayotgan yangiliklarni aks ettirdilar. Z. Kovalevskaya, Z. Inogʻamov, N. Qoʻziyoyev, K. Bogaduxov, G. Ulko, M. Yesin, N. Shurygin kabi rassomlar Oʻzbekiston tabiatini aks ettiruvchi lirik manzara asarlarini yaratdilar.

SHu bilan birga shahar manzarasi goʻzallini ham ayrim rassomlarimiz moʻyqalamda aks etganini koʻrishimiz mumkin.

P. Benkov metodikasini yaxshi egallagan shogirdi A. Roziqovni «O'zbek hovlisi» (1947 y), «SherDor hovlisida» (1950 y), «Samarqandda bahor» (1958 y) kabi asarlari bilan Benkovni eslatadi.

Rashid Timurov go'zal Samarqandni kuylagan yetakchi rassomlar qatoriga kiradi. U shu shaharda yashab, ko'p asrli qadimiy yodgorliklarni, gullagan bog'larni, hayotni sevib tabiat go'zalligidan ilhomlanib ijod qildi. «Samarqand bog'lari» (1946 y. GMI), «Bibi-xonim maydoni, bahor» asarlarida sokinlik, xalqni bayram tarannumi ifoda etilgan.



Samarqanddagi «Shohi-Zinda», «Xazrat Xizar», «Ulug'bek madrasasi», «Afrosiyob» yodgorliklarini sevib tasvirlagan Rashid Timurov manzarachi rassom sifatida tabiatni yaxshi his etardi. U «Samarqand» (1958 y GMI) asarida ko'rish nuqtasini juda to'g'ri topgan, panorama ko'rinishida tasvirlangan yodgorliklar chuqur falsafiy fikrlashga chorlaydi. Har bir rassom, har bir avlod o'z davrida manzara janrida ham o'zini sinab ko'radi, lekin hammalari ham manzarani yaxshi his etaolmaydi. Manzarachi rassom bo'laolmaydi. Tabiatni vujudi bilan his etib sevgan malakali rassomgina o'z his-tuyg'ularini manzara tasvirida ifodalab beradi. Ko'plab keksa avlod rassomlari bizlarga go'zal manzara asarlarni yaratib meros qoldirganlar. Ular yaratgan san'at asar mazmunini kompozisiya tuzilishini, ularni ish tajribalarini yoshlarga o'rgatib, ko'rgazmali vosita sifatida foydalanish o'rinlidir.

Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog'lar hamda yerosti o'tishjoylari kompozisiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Manzaraning kompozisiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizigi, fazoviy masofa, format, perespektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozisiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozisiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir sohalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizgi rangli etyudlar manzara kompozisiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin.

Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va yerni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi orqa plani va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozisiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mir kabi yumshoq materiallarda bajarish tavsiya etiladi. Bajarilgan xomaki eskiz variantini rangda tasvirlash asar koloritni aniqlashga yordam beradi. Sifatli bajarilgan eskiz asosida manzara kompozisiyani yakuniy nus'hasini amalda bajarish kerak. Uni qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.



rasm 114. R. Timurov “Ko‘k jozibali” rasm 115. R. Timurov “Registonda



rasm 116. A. Roziqov “SherDor hovlisi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N. Normatov “Ranglar yurtiga yo‘l” “Nashr” T.: 2003..
2. Boymetov B., Abdirasilov S. Chizmatasvir. T.: G ‘G‘ulom nashriyot ijodiy uyi, 2004.
3. SHEVCHENKO B. YA. Komioznshiya plakata : Havch . posibn . - 2004 . - 123 c. X: Kolorit.: IA . ISBN 966-8536-03-7 .
4. Volkov N.N. Kompozitsiya v jivopiso‘ M. 1977.
5. Xaitov, E.X. X 17 Kompozitsiya fanidan [Matn]: (I-bosqich talabalari uchun) /o ‘quv qo‘llanma/E.X. Xaitov/Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. — T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2019. — 112 b. ISBN 978-9943-6134-3-0